

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Sabirova Dildor Arifovna

Xalqaro Nordik universiteti

d.sobirova@nordicuniversity.org

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi davrning muhim xususiyatlaridan biri – inson faoliyatining deyarli barcha jabhalariga raqamlashtirish jarayonlarining faol joriy etilishi, ushbu jarayonlar yangi ijtimoiy munosabatlar shakli va turli faoliyat yo‘nalishlarida qo‘llaniladigan ilg‘or axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan zamonaviy axborot infratuzilmasini shakllantirishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: axborot, axborot texnologiyalari, raqamshtirish, raqamli texnologiyalar, dasturiy ta’minot

KIRISH

Hozirgi kunda turli kompyuter qurilmalari va dasturiy ta’minotlardan foydalanmasdan kundalik hayotni tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, xalqaro aloqalarning kengayishi sharoitida axborotlashtirish jarayoni jamiyat taraqqiyotida tobora muhim o‘rin tutmoqda. Axborot texnologiyalari, ularning rivojlanish darajasi va amaliyotda qo‘llanilishi, shuningdek, telekommunikatsiya infratuzilmasi mamlakat taraqqiyotining yuqori sur’atlarini ta’minlovchi va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillarga aylanmoqda.

Raqamli texnologiyalar kabi samarador texnologiyalar hayotimizga kirib kelishi sababdan, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis oldida nutq so‘zlab, unda 2020-yilni “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qildi hamda axborot texnologiyalari sohasiga ham

alohida to‘xtalib o‘tdi: “*Barqaror rivojlanishga erishish uchun biz raqamli bilimlarni va axborot texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirishimiz kerak, bu esa bizga har tomonlama rivojlanishga erishish uchun eng qisqa yo‘ldan borishimizga imkon beradi. Bugungi dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda... Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi davlat va jamiyat boshqaruvining samaradorligini oshirishga, ijtimoiy sohani rivojlantirishga, bir so‘z bilan aytganda, odamlar hayotini tubdan yaxshilashga yordam beradi*”¹

Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 19-fevraldagи PF-5349-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”, O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, aholi va tadbirkorlik su‘bektlariga qulay davlat xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmonikabi bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi.

Ushbu sa’y harakatlar O‘zbekistonda rivojlangan axborotlashgan jamiyatning shakllanishiga turtki bo‘ladi.

Axborot texnologiyasları – bu axborot resurslaridan foydalanish jarayonlarini yengillashtirish, ularning ishonchliligi va tezkorligini oshirish uchun axborotni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash, uzatish va tarqatishni ta’minlovchi texnologik zanjirda birlashgan usullar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar yig‘indisidir.

Soddaroq ta’rif berilganda, axborot texnologiyalari (AT) – axborotni yaratish, saqlash, almashish va qayta ishslash jarayonlari hamda ushbu jarayonlarni amalga oshirish usullari majmuasidir.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020 y.

Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni samarali qayta ishlash, saralash va tanlash, inson va kompyuter texnologiyalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning eng samarali jarayonini amalga oshirish, axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirish, shuningdek, operativ o'zaro ta'sir qilish uchun zarurdir.

Axborot texnologiyalari axborot almashish va odamlarni bir-biriga bog'lash imkonini beruvchi keng qamrovli axborot texnologiyalari vositalarini o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar axborotni qayta ishlash, saqlash va uzatishda qo'llaniladigan turli qurilmalar, dasturlar va tarmoqlarni qamrab oladi. AKT orqali insonlar masofadan turib samarali ishlashlari, dunyoning istalgan burchagidagi hamkasblar va do'stlar bilan bog'lanishlari, shuningdek, turli manbalardan yangiliklar va ma'lumotlarni tezkor olishlari mumkin.


Axborot texnologiyalari orqali biz professional va shaxsiy darajada samarali hamkorlik qilish imkoniyatiga ham ega bo'lamiz. Ushbu texnologiyalar ta'lim, sog'liqni saqlash, biznes va boshqa ko'plab sohalarning sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Hozirgi vaqtida jamiyatni axborotlashtirishning muhim tendentsiyasi kompyuterlardan oflayn foydalanishdan axborot tarmoqlarida ishlashga o'tishdir. Axborot tarmoqlari foydalanuvchiga insoniyat tarixi davomida to'plangan barcha ma'lumotlardan tez va qulay foydalanish uchun real imkoniyat yaratadi.

Global kompyuter tarmoqlarining rivojlanishi XX asrning 80-yillarida boshlangan. 1981 yilda Internetda atigi 213 ta kompyuter mavjud bo'lgan bo'lsa, o'tgan asrning 80-yillari oxiriga kelib tarmoqqa ulangan kompyuterlar soni 150 mingtaga etdi, 2005 yil boshiga kelib ularning soni 300 milliondan oshdi. BMTning "Jahon demografik istiqbollari" hisobotiga ko'ra, bugungi kunda yer yuzida 8,08 milliard kishi yashaydi. Bir yil davomida dunyo aholisi 74 million kishiga ko'paydi, bu esa yillik o'sish sur'ati 0,9% ni tashkil etadi.

2024-yil boshiga kelib mobil telefonlarning foydalanuvchilari soni 5,61 milliardni tashkil etdi. GSMA Intelligence ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo aholisining 69,4% mobil qurilmalardan foydalanadi. 2023-yil boshidan buyon mobil qurilma foydalanuvchilari soni 138 millionga (+2,5%) oshgan.

Sayyoramiz aholisining 66% dan ortig‘i internetdan foydalanadi, va so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, global internet foydalanuvchilari soni **5,35 milliardga** yetdi.²



1-rasm. 2024 yil yanvar holatida dunyo aholisi, internet va mobil foydalanuvchilari soni

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining shaxsiy huquq va erkinliklarga oid 7 bob, 33 moddasida internetdan foydalanish huquqlariga oid quyidagicha ta’kidlangan: “Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minalash uchun shart-sharoitlar yaratadi.”³

O‘zbekistonda foydalanuvchilar soni tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2024-yilning 1-yanvar holatiga, internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni **30,1 million** kishini tashkil etgan.⁴

Kompyuterlar va axborot texnologiyalari moddiy ishlab chiqarish sohasiga jadal kirib bormoqda. Muhandislar, fermerlar va boshqa an’anaviy kasblar mutaxassislari ish joylarida kompyuterga ega bo‘lib, kasbiy faoliyatida axborot-

² <https://www.web-canape.ru/business/statistika-interneta-i-socsetej-na-2024-v-mire-i-v-rossii>

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

⁴ Stat.uz

kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanmoqda. Bu ko'rsatkichlar axborotlashgan jamiyat belgilaridir.

Axborotlashgan jamiyat- bu aholining aksariyat qismi axborotni qabul qilish, qayta ishslash, uzatish va saqlash bilan shug'ullanadigan jamiyatdir. Axborotlashgan jamiyatda axborot madaniyati shakllanadi.

"Axborot madaniyati" tushunchasi madaniyatning odamlar hayotining axborot jihatni bilan bog'liq qirralardan birini tavsiflaydi. Axborot jamiyatida ushbu jihatning roli doimiy ravishda oshib bormoqda va bugungi kunda har bir inson atrofidagi axborot oqimlarining yig'indisi shunchalik katta, xilma-xil va tarmoqli bo'lib, u axborot muhiti qonunlarini bilishini va axborot oqimlarini boshqarish qobiliyatini talab qiladi. Aks holda, u yangi sharoitlarda hayotga, xususan, ijtimoiy tuzilmalardagi o'zgarishlarga moslasha olmaydi, buning oqibati axborot faoliyati va xizmatlari sohasida ishlaydigan odamlar sonining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

XULOSA

Axborot texnologiyalari – bu axborotni izlash, yig'ish, saqlash, qayta ishslash, taqdim etish va tarqatish jarayonlari hamda shu jarayonlarni amalga oshirish usullari majmuasidir. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi juda tez sur'atlarda kechmoqda va zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish va raqamlashtirishga katta hissa qo'shmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (PF-6079-son, 05.10.2020 y.)
3. "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5349 sonli Farmoni, 2018 yil 19 fevral

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020 y.
5. Tukhtabaev, J. S., Bondarskaya, O. V., Abdulxayeva, G. M., Sabirova, D. A., Mamarayimova, R. R., Ibroximova, Z. B. K., ... & Kurolboyev, D. D. U. L. (2022, December). Socio-economic necessity and prospects for the introduction of the digital economy. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 159-166).
6. Arifovna, S. D. (2023). ELEKTRON HUKUMATNI JORIY ETISHNING JAHON TAJRIBASI. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (4), 179-193.
7. <https://www.web-canape.ru/business/statistika-interneta-i-socsetej-na-2024-v-mire-i-v-rossii>
8. stat.uz -Statistika qo mitasi sayti